

Yashil

IQTISODIYOT
TARAQQIYOT
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 126 sahifa.

E'lion qilishga 2024-yil 25-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIU professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhad, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro‘yxatdan
o’tkazilgan.

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O’zR
Tabiat resurslari vazirligi, O’zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK
departamenti.



MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| Oliy ta'lif islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlanitirish asoslari..... | 16 |
| Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna | |
| Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda | 20 |
| Muxiddin Kalonov | |
| "Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish | 24 |
| Muhammadiyeva Maftuna | |
| Oliy ta'lif tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati | 27 |
| Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna | |
| Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtafida iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash..... | 31 |
| Dustmurodov Orifjon Ismatilloyevich | |
| Перспективы развития средств размещений в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана | 40 |
| Ахмедходжаев Равшан Темурович | |
| Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari | 49 |
| Toiyirov Yunus Alamovich | |
| Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnni bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari | 55 |
| Rustamov Alisher Raxmataliyevich | |
| Nodavlat umumiy o'rta ta'lif maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish..... | 62 |
| Ustadjalilova Xurshida Aliyevna | |
| Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati..... | 67 |
| Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich | |
| Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi..... | 71 |
| Usmonov Sharofiddin Pazltdinovich | |
| Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlari..... | 76 |
| Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li | |
| Oliy ta'lif muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya..... | 81 |
| Yuldashev Iskandar Bahromovich | |
| Iqtisodiy transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar | 86 |
| Jiyanova Nargiza Esanboyeva | |
| Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarni samarali tashkil etish mezonlari va omillari..... | 93 |
| Z. Abdikarimova, S. Madaminov | |
| Savdo korxonalari boshqaruvi samaradorligini oshirish imkoniyatlari..... | 97 |
| Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov | |
| Sociological Assessment of Migration Processes | 102 |
| Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli | |
| Current issues of business management in the context of digitalization of the economy | 112 |
| Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich | |
| Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ..... | 118 |
| Эркинов Шахзод Баходир ўғли | |



**Jiyanova Nargiza
Esanboyevna**

Iqtisod fanlari nomzodi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliya" kafedrasini professori

IQTISODIYOT TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISHDA METODOLOGIK YONDASHUVLAR VA ILMIY QARASHLAR

Annotatsiya: Maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishning nazariy-uslubiy assoslari yoritilgan. Moliyaviy resurslarini boshqarish tushunchasining nazariy yondashuvlar tadqiq qilingan, shu bilan birgalikda moliyaviy resurslarini boshqarishning asaosisi instrumentlarining uslubiy jihatlari shakllantirilgan. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini samarali boshqarishda moliyaviy dastaklar qo'llanilishi izohlangan.

Kalit so'zlar: xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliviy faoliyati, moliyaviy resurslar, moliyaviy boshqaruvi tizimi, moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, moliviy dastaklar.

Abstract: The article describes the theoretical and methodological foundations for managing the financial resources of business entities. Theoretical approaches to the concept of financial resource management, as well as methodological aspects of the main tools for managing financial resources, have been studied. The financial levers that are used in the effective management of financial resources of business entities have been studied.

Key words: financial activities of business entities, financial resources, financial management system, effective management of financial resources, financial leverage.

Аннотация: В статье описаны теоретико-методологические основы управления финансовыми ресурсами хозяйствующих субъектов. Изучены теоретические подходы к понятию управления финансовыми ресурсами, а также методологические аспекты основных инструментов управления финансовыми ресурсами. Исследованы финансовые рычаги, которые используются в эффективном управлении финансовыми ресурсами хозяйствующих субъектов.

Ключевые слова: финансовая деятельность хозяйствующих субъектов, финансовые ресурсы, система финансового управления, эффективное управление финансовыми ресурсами, финансовый рычаг.

KIRISH

Zamonaviy sharoitda bozor munosabatlari rivojlanangan sari resurslarni samarali boshqaruvi muammosi paydo bo'ladi, shu jumladan, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslari uchun tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Mavjud moliyaviy resurslar haqida tizimli va to'liq ishonchli ma'lumotga ega bo'limasa, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z aktivlarining 20% gacha yo'qotishi mumkin. Turli tashkiliy-huquqiy shaklga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy resurslardan foydalanish muammolari mavjud, shu jumladan, ularni boshqarish, ya'ni, o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanishning past darajadaligi, to'lov qobiliyati va ishbilarmonlik faolliginining yetarli darajada emasligi va hokazo. Ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun tashqi manbalardan uzoq muddatli kreditlar olish jarayonlarining murakkablashuvi sharoitida ichki salohiyatni oshirish muammosi yanada keskinlashib borayapdi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston-2030" strategiyasida "...Sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobar oshirish. sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta



yuqori daromadli ish o'rinalarini yaratish., yirik korxonalar tomonidan import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish kabi vazifasi belgilangan [2].

Bu esa, ishlab chiqaruvchi korxonalar oldida moliyaviy resurslarni boshqarishning nazariy-uslubiy jihatlarini kompleks tadqiq qilish kabi yangi vazifalarni yuklaydi.

MAVZU BO'YICHA ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy boshqaruv sohasidagi bir qator tadqiqotchilar xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslarini boshqarish tizim sifatidagi nuqtayi nazarga amal qiladilar, mualliflarning boshqa qismi esa bu tushunchani korxona kapitali miqdoriga ta'sir qilish jarayoni deb hisoblaydilar.

Umuman olganda, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslarini boshqarishning nazariy asoslari 100 yildan ko'proq vaqt oldin shakllana boshlagan va ular doimiy ravishda takomillashtirilayotganiga qaramay, bugungi kunda ham ularni boshqarish instrumentlarini rivojlantirish zarurati saqlanib qolmoqda. Ushbu instrumentlardan biri moliyaviy tahvilning uslubiy jihatlarini ta'minlash bo'lib, u amalga oshirilayotgan moliyaviy resurslarini boshqarish siyosatini retrospektiv va joriy baholashda ham, moliyaviy boshqaruv qarorlarini asoslashda ham qo'llaniladi. Bizning fikrimizcha, moliyaviy boshqaruv tizimida korxonani barqaror rivojlanishi uchun zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydigan "xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslarini boshqarish" nomli quyi tizimini ajratib ko'rsatish kerak. I.A. Blankning so'zlariga ko'ra, "moliyaviy resurslarini boshqarish tizim sifatida ularni samarali shakllantirish, taqsimlash va iqtisodiy faoliyat jarayonida foydalanishni ta'minlash bilan bog'liq boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish tamoyillari va usullarini o'z ichiga oladi" [10].

V.G. Belolipetskiyning fikriga ko'ra, korxonaning moliyaviy resurslarini boshqarish - bu ma'lum bir natijaga erishish uchun turli xil moliyaviy faoliyat turlariga ta'sir qilishning turli usullari, operatsiyalari, vositalari va usullarini birlashtirgan tizim [11]. V.V.Kovalyovning nuqtayi nazariga ko'ra esa, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslarini boshqarish tizimi qisqa va uzoq muddatli istiqboldagi moliyaviy siyosatga kiritilgan moliyaviy xizmat faoliyatining ma'lum bir yo'nalishiga asoslangan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish omillarini tahvil qilinishi kabi jarayonlarni qamrab olishi kerak [12]. Mualliflar, shuningdek, boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish moliyaviy menejerlarning o'z vazifalarini qay darajada amalga oshirishiga, shu jumladan korxonani moliyaviy resurslar bilan ta'minlash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga bog'liqligini ta'kidlaydilar.

Shunday qilib, korxonada moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga erishish uchun moliyaviy boshqaruv tizimining har bir elementining har bir darajadagi javobgarlik chegarasiga qat'iy muvofiq ravishda o'z vazifalarini bajarishi juda muhimdir. Bundan tashqari, boshqaruv tizimining turli darajalari o'ttasidagi o'zaro ta'sir va o'zaro bog'liqlik ham muhimdir. Moliyaviy resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish bo'yicha qarorlar ushbu jarayonning asosiy jihatlari hisoblanadi.

Moliya nazariyasida moliyaviy resurslarini boshqarishni uzluksiz jarayon sifatida qaraydigan muqobil nuqtayi nazarlar mavjud. Ushbu yondashuvni to'liq tushunish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlari moliyaviy resurslarini boshqarishning metodologik jihatlarini, shu jumladan funksional va jarayon-funksional sohalarni hisobga olish kerak.

Moliya nazariyasida moliyaviy resurslarini boshqarishni uzluksiz jarayon sifatida qaraydigan muqobil nuqtayi nazarlar mavjud. Ushbu yondashuvni to'liq tushunish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlari moliyaviy resurslarini boshqarishning metodologik jihatlarini, shu jumladan funksional va jarayon-funksional sohalarni hisobga olish kerak.

Moliyaviy resurslar ikki tomonlama ko'rib chiqilishi kerak:

- bir tomonidan, korxona tomonidan shakllangan moliyaviy resurslar va foydalaniladigan ma'lum mablag'lar majmuasini ifodalaydi; bu talqinda moliyaviy resurslar pul oqimi sifatida qaraladi (bu fikr Yu. A. Gadjiyev va uning hammualliflari ishlarida asoslab berilgan);
- boshqa tomonidan, moliyaviy resurslar subyekt ishonishi mumkin bo'lgan va u tomonidan ma'lum bir davrda moliyaviy-xo'jalik faoliyatida foydalanishi mumkin bo'lgan ma'lum bir mablag' zaxirasini ifodaydi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy resurslarini ularni pul oqimi sifatida tushunishni hisobga olgan holda, ular dinamik xususiyatga ega ekanligini yodda tutish kerak, chunki ular aylanishda ishtirot etib, doimiy ravishda namoyon bo'lish shaklini o'zgartiradilar (tovar – pul – tovar va boshqalar). "Moliyaviy resurslar" tushunchasining bu kontekstida ko'rib chiqilayotgan atama va kapital atamasi o'tasida bog'liqlik mavjud, ammo ko'p qirrali tushunchaga ega.

Masalan, A.N.Gavrilova va hammualliflar ta'kidlashicha, "kapital (o'z mablag'lari, sof aktivlar) korxonaning majburiyatlaridan xoli mulki, uning rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratuvchi strategik zaxiradir..." [13].



Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati va ayrim elementlari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari T.S.Malikov, O.O.Olimjonov, R.X.Karlibayeva, B.E.Toshmurodova, M.B.Xamidulin, S.E.Elmirzayev, O.N.Xamdamov, X.X.Xudoyqulov, Sh.Tursunxodjayeva, A.A.Shomirov, N.R.Tursunova, M.P.Eshovlarning ilmiy tadqiqot ishlarda o'rjanilgan.

T.S.Malikov, O.O.Olimjonovlarning ilmiy asarlarda xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasining mohiyati, asosiy tushunchalari va unda ko'rildigan masalalarning ayrim jihatlari yoritilgan [21]. M.B.Xamidulin o'zining ilmiy tadqiqotlarida korporativ boshqaruva va uning moliyaviy mexanizmlarini tadqiq qilgan. B.E.Toshmurodova, S.E.Elmirzayev, R.X.Karlibayevalarning ilmiy ishlarda xo'jalik yurituvchi subyektlari moliyaqiy resurslarini boshqarishning tlmiy metodologik asoslari, tashkiliy tamoyillari, aksioner jamiyatlarda kapitalni shakllantirish, moliyaviy barqarorligini boshqarish samaradorligi va korxonalarda soliq menejmentini tashkil etish kabi masalalar yoritilgan [14, 15, 19]. O.N.Xamdamov o'zining ilmiy tadqiqot ishlarda xo'jalik yurituvchi subyektlarida moliyaviy menejment tizimining konseptual asoslari, aksionerlik jamiyatlarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruva mexanizmini uslubiy asoslarini takomillashtiri yo'llari tadqiq etilgan [16]. N.R.Tursunova tomonidan korporativ tuzilmalarda moliyaviy ta'minotni tashkil etishning ilg'or xorij tajribalari, korporativ moliyani boshqarishda moliyaviy ta'minotni samarali tashkil etish yo'nalishlari xususida fikr yoritilgan. A.A.Shomirov tomonidan aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy resurslarini boshqarishga ta'sir etuvchi omillar va aksiyadorlik jamiyatları moliyaviy resurslarini samarali boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy natijalar shakllantirilgan [17]. X.X.Xudoyqulov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarda xo'jalik yurituvchi subyektlar moliviy resurslarni boshqarishda asosiy masalalaridan biri bo'lgan kapital tarkibini baholash va uning uslubiy asoslarini tadqiq qilingan [20]. Biroq xo'jalik yurituvchi subyektlari moliyaviy resurslarini boshqarishning xorijiy tajribalarni e'tiborga olgan holda alohida ilmiy yo'nalish sifatida kompleks tadqiq etilmagan. Bu holat ham tanlangan mavzuning dolzarbligini anglatadi.

TADQIQOT METODOLGOIYASI, NATIJA VA MUHOKAMA

Moliyaviy resurslarni boshqarishni tashkil etishda boshqaruvning muayyan tamoyillari va usullaridan foydalaniлади. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurlarni boshqarish tamoyillariga an'anaviy ravishda quyidagilar kiradi: integratsiya, maqsadlilik, o'zgaruvchanlik (alternativlik), o'z vaqtidalik, murakkablik, ishchonchilik, optimallik va samaradorlik, usullariga esa moliyaviy hisob usullari, moliyaviy tahlil, moliyaviy rejalashtirish, shu jumladan, budgetlashtirish va moliyaviy prognozlash, moliyaviy nazorat, soliqqa tortish kiradi.

Moliyaviy resurslarni boshqarishning sanab o'tilgan tamoyillaridan birini qo'llashni ko'rib chiqishda – moliyaviy tahlilda, avvalo, "moliyaviy resurslarni boshqarish" atamasining o'zi va uning samaradorligi mezonlarini aniq belgilash kerak.

Moliyaviy resurslarni boshqarish "xo'jalik faoliyati jarayonida ularni samarali shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanishni ta'minlash bilan bog'liq boshqaruva qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish tamoyillari va usullari tizimi".

Moliyaviy resurslarni boshqarish – bu o'z funksiyalarini amalga oshirish samaradorligi va natijadorligini oshirishni ta'minlash uchun moliyaviy resurslar harakati bo'yicha amalga oshiriladigan korxona boshqaruvi harakatlarining majmui.

Moliyaviy resurslarni samarali boshqarish – bu korxonaning moliyaviy resurslariga samarali va oqilona ta'sir ko'rsatadigan boshqaruva harakatlarining ketma-ketligini tashkil etish.


Shunday qilib, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish korxona minimal moliyaviy xarajatlar va moliyaviy risk darajasi (moliyaviy mustaqillik va to'lov qobiliyatini yo'qotish xavfi)da moliyaviy resurslarni boshqarish maqsadiga erishishning eng maqbul usuli va uslubi hisoblanadi, ya'ni moliyaviy resurslarni boshqarish maqsadi minimal xarajatlar va moliyaviy risklar darajasida amalga oshirilsa, boshqaruva samarali bo'ladi, aks holda, boshqaruva samarasizdir. Moliyaviy resurslarni boshqarish samaradorligini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirishda samarali moliyaviy siyosat muhim o'r'in tutadi. Ko'pgina tadqiqotlar xulosalariga ko'ra, aynan u moliyaviy resurslarni jalb qilish va taqsimlashning oqilona tuzilmasini shakllantirishni, ulardan foydalanish samaradorligini oshirishni va eng muhimi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati barqarorligini ta'minlaydigan vositadir.

Moliyaviy resurslarni samarali boshqarish uchun ko'rsatilgan mezonlarning bajarilishi va / yoki erishish darajasini miqdoriy va / yoki sifat jihatidan aniqlash uchun ma'lum hisoblagichlar tizimi – moliyaviy (analitik) dastaklar qo'llaniladi. Ular ma'lum moliyaviy ko'rsatkichlarni ifodalaydi, ularning yordamida korxonaning moliyaviy resurslari harakati bilan bog'liq joriy yoki kutilayotgan vaziyatni baholash amalga oshiriladi.

Tadqiqot vazifalarini amalga oshirish maqsadida moliyaviy boshqaruvning mavjud ilmiy yondashuvlar to'plamiga asoslangan olda tijorat tashkilotlar va xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarish muammolarining uslubiy jihatlarini tadqiq qilish zarurati bilan bog'liq xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy boshqaruvi samaradorligini baholash va amalga oshirish uchun tashkiliy qo'llab quvvatlovchi jarayonlarni o'z ichiga olgan holda yangi ta'rif shakllantirildi.




Demak xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarish XYUS hayot sikli bosqichi ehtiyojlariga muvofiq moliyaviy resurslarning optimal miqdorini aniqlash, shakllantirish va oqilona foydalanishni rejalashtirish, taxlil qilish, nazorat qilish va moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoniga aytildi.



1-rasm: Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslarni samarali boshqarish asosiy masalalari

Xo'jalik yurituvchi subyektlari moliyaviy resurslarini samarali boshqarishda quyidagi moliyaviy siyosating yo'nalishlarini hisobga olish va muvofiqlashtirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish nazarda tutiladi:

- ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirishga investitsiyalash;
- daromadli moliyaviy instrumentlarga mablag'larni yo'naltirish va yig'ish;
- oqilona dividend siyosati;
- ma'lum bir rivojlanish darajasiga erishgan xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holatiga muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va ma'muriy-siyosiy omillarni ta'sirini to'g'ri optimal hisobga olish boshqalar.



2-rasm: Xo'jalik yurituvchi subyektlariining moliyaviy resurslarini boshqarish tizimining tarkibiy mazmuni¹

1 Rasm o'rganilgan ma'lumotlar asosida tuzilgan.



Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishga umumiyligi muammolarni hal qilish orqali erishiladi, ularning ro'yxati ancha aniq va moliyaviy boshqaruv nazariyasi va amaliyotida yaxshi ma'lum.

Moliyaviy resurslarni boshqarishni qo'llab-quvvatlash tizimlarining butun majmuasi orasida, kelajakda analitik ta'minlash tizimiga qaratiladi. Shu munosabat bilan biz quyidagi muhim xususiyatlarni ajratib ko'rsatamiz:

- moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmining tarkibiy va mantiqiy modeli sifatida analitik ta'minlash tizimi faoliyatining obyekti – uni boshqarish samaradorligini baholash bosqichi;
- moliyaviy resurslarni boshqarish samaradorligini baholashning qo'llaniladigan mezonlari tizimi va ularni aniqlash ko'rsatkichlari analitik ta'minlash tizimidagi asosiy nuqta hisoblanadi.

Shu munosabat bilan, moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmining yuqoridagi modelini asoslash doirasida moliyaviy resurslarni boshqarishni baholashda qo'llaniladigan har bir mezonning mazmunini belgilashga alohida e'tibor qaratish lozim.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarni boshqarish tizimining tarkibiy mazmunini asoslash doirasida 1-jadvalda o'rganilgan analitik muammolarini hal qilishda har xil vositalardan foydalanishga xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishning asosiy konsepsiyalari bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi zamonaviy sharoitida ham asos bo'lmoqda.

1-jadval: Moliyaviy resurslarni boshqarishning asosiy konsepsiyalari²

| Nomi | Mualliflar | Mazmuni |
|---|---|--|
| Moliyaviy resurslarni shakllantirishni boshqarish konsepsiyalari | | |
| Kapital qiymati konsepsiysi | J.Uilyams, F. Madilyani, M. Miller | U yoki bu moliyalashtirish manbalarini jaib qilish korxonaga har xil xarajatlarni keltirib chiqaradi (korxona kapitaldan foydalanishga majbur bo'lgan nisbiy xarajatlar mezoniga ko'ra). Bepul moliyalashtirish manbalarini deyarli yo'q. |
| Kapital tuzilmasi konsepsiysi | F. Madilyani, M. Miller | Korxona tomonidan tanlangan xususiy va qarz kapitalining nisbati uning bozor qiymatiga ta'sir qiladi |
| Korxonaning barqaror o'sishini moliyaviy qo'llab-quvvatlash modeli | D. Van Xorn, R. Xiggins | Korxona tomonidan mavjud mablag'lardan (aktivlardan) foydalanish kreditorlik qarzlar va kapital manbalarini sifatida o'z mablag'larining belgilangan nisbatiga to'g'ri kelishi kerak. Optimallik sharoitida korxona tashqi moliyalashtirishni ko'paytirish yo'lidan bormaydi, balki asosiy e'tiborni foydalanishga qaratadi, bu qarz va o'z mablag'lari nisbatini belgilovchi koeffitsiyentning cheklanishi bilan tavsiflanadi. XM / QM nisbati bo'yicha chekllovlar qiymatini aniqlash, moliyaviy dastak ta'sirining ijobji qiymatiga assoslangan korxona mablag'lari manbalarining oqilona tuzilishini shakllantirish vazifasidan kelib chiqadi. Shu bilan birga, ushbu oqilona tuzilmani aniqlash vazifasi oqilona dividend siyosati bilan birlashtiriladi. |
| Moliyaviy resurslardan foydalanishni boshqarish konsepsiyalari | | |
| Muqobil xarajatlar konsepsiysi (boy berilgan imkoniyatlar konsepsiysi) | D. Rikkardo, Fridrix fon Vizer, G. Xaberler | Har qanday moliyaviy qarorni qabul qilish ko'p hollarda har qanday iqtisodiy yoki boshqa foya keltirishi mumkin bo'lgan muqobil variantni rad etish bilan bog'liq. |
| Zamonaviy portfel nazariyasi | G. Markoves, J. Tobin, U. Sharp | Korxona egalarining boyligini maksimal darajada oshirish mezoniga ko'ra portfeli shakllantirishda xavfli moliyaviy investitsiya vositalarining risk darajasi va rentabellik nisbatlarini statistik tahlil qilish va optimallashtirishning uslubiy tamoyillarini belgilaydi. |
| Dividend siyosati konsepsiysi | J. Linter, F. Madilyani, M. Miller | Dividend siyosatining kompaniyaning bozor qiymatiga, uning aksiyalari narxiga ta'siri mexanizmini shakllantiradi, bu sizga turli omillar ta'sirini hisobga olgan holda joriy dividendlar miqdorini optimallashtirish imkonini beradi. |
| Agentlik munosabatlari konsepsiysi | M. Jensen, U. Mekling | Har qanday korxonaga nisbatan har doim uning faoliyatidan manfaatdor bo'lgan, ammo manfaatlari, qoida tariqasida, bir-biriga mos kelmaydigan odamlar guruhlarini ajratib ko'rsatish mumkin, bu esa nizoga olib keladi. |
| Pulning vaqt qiymati konsepsiysi | I. Fisher, J. Xirshleyfer | Vaqt o'tishi bilan pulning qiymati o'zgaradi, ya'ni bugungi so'm bir yil ichida so'mga o'xshamaydi (sabablari: inflatsiya, xavf, kelajakdag'i daromadni qo'shimcha daromad bilan qayta investitsiya qilish). |

² Jadval o'rganilgan ma'lumotlar asosida tuzilgan.



| | | |
|--|-------------------------|--|
| Risk va daromad o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik konsepsiysi | F. Nayt | Har qanday daromad olish har doim salbiy hodisalar (risk) ehtimoli bilan bog'liq. Ular o'ttasidagi munosabatlar, qoida tariqasida, to'g'ridan to'g'ri proporsionaldir: kutilgan foyda qanchalik yuqori bo'lsa, risk darajasi ham shuncha yuqori. |
| Mulkdorlarning iqtisodiy manfaatlari ustuvorligi konsepsiysi | G. Saymon | Bu mulkdorlarning manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish zaruratidan iborat. Amaliy ma'noda u "korxonaning bozor qiymatini maksimal darajada oshirish" sifatida ifodalanadi. |
| Qo'shilgan iqtisodiy qiymat konsepsiysi | A. Marshall, B. Styuart | Konsepsiya ko'ra, kompaniyaning qiymati uning balans qiymati va kelajakdagi iqtisodiy qo'shilgan qiymatning joriy qiymatiga bog'liq (YEVA). |

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xo'jalik yurituvchi subyektlar ning moliyaviy resurslarini boshqarish muammosining ishlanganlik darajasi moliyaviy resurslarning mohiyatini, ularni boshqarish konsepsiyasini ochib beradigan nazariy tadqiqotlar asosida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarish tizimi hayot sikli(kelib chiqishi, o'sish, yetuklik va qarish)ning moliyaviy xususiyatlari va moliyaviy siyosatni shakllantirishning moliyaviy xususiyalariga asoslangan holda yaratilishi taklif etiladi.

Umuman olganda, xo'jalik yurituvchi subyektlari moliyaviy resurslarini boshqarishning nazariy-amaliy jihatlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda moliyaviy resurslarni tahlil qilish, analitik dastaklarni qo'llash hamda ularni jaib qilish va moliyaviy resurslardan foydalanishning optimal tuzilmasini tanlash xo'jalik yurituvchi subyektlari moliyaviy resurslarini samarali boshqarishni kasb etadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarish muammolarini hal qilish samaradorligi ko'p jihatdan ularni shakllantirish va foydalanish bilan bog'liq mavjud jarayonlarni to'g'ri baholashga, shuningdek, moliyaviy boshqaruv qarorlarini amalga oshirishdan kutilayotgan moliyaviy samarani baholash natijalarining to'g'rilingiga bog'liq.

Foydalilanilgan adabiyotlar ruxxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Т.: O'zbekiston, 2023. <https://lex.uz/docs/6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. lex.uz/docs/6600413
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagagi "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/6102462>
4. Н.Э. Жиянова, А.И.Умарова Финансы бизнеса: Учебное пособие— Т.: "LESSON PRESS", 2021. – 325 с. 20;
5. Н.Э. Жиянова, Д.Б. Таджикбекова Финансы: Модуль 3. Финансы хозяйствующих субъектов: Учебник— Т.: "LESSON PRESS", 2021. – 335 с.
6. Н.Э.Жиянова Финансовые ресурсы предприятий: пути повышения эффективности их формирования и использования. –Монография. – Т.:ТФИ,2021. –153с.
7. Н.Э.Жиянова Features of capital management in improving commercial activity of enterprises //Россия Экономика и предпринимательство, №1, 2018 г. "Газеты.Журналы". –Б.136-139.;
8. Н.Э. Жиянова, С.С. Сайдибаев Capital structure optimizations after mergers and acquisitions// "Экономика, бизнес, инновации" Пенза МНЦК 2019г. "Наука и просвещение". –Б. 72-74.
9. Н.Э. Жиянов Финансовые ресурсы предприятий: повышения эффективности их формирования и использования в современных условиях// Science and Education, 2(8) 2021, 656-668. <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/1794>.
10. Бланк, И. А. Управление финансовыми ресурсами / И. А. Бланк. – М. : Омега-Л, 2011. – 768 с.
11. Белолипецкий, В. Г.Финансы фирмы : учеб. пособие / В. Г. Бело- липецкий. – М. : ИНФРА-М, 2009.– 244 с.
12. Ковалёв В.В.. Финансовый менеджмент:теория и практика / В.В.Ковалёв. – М. : ТК Велби, Изд-во Проспект, 2019. – 1805 с.
13. Гаврилова, А. Н. Финансовый менеджмент : учеб. пособие / А. Н. Гаврилова, Е. Ф. Сысоева, А. И. Барабанов. – М. : КноРус, 2013. – 432 с.
14. Karlibayeva R.X. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini samarali tashkil etish yo'llari: diss. avtoreferati. i.f.d. – Toshkent, 2018. – 34 b.
15. Elmirzayev S.E. Korporativ moliyani boshqarishda soliq munosabatlarini takomillashtirish. I.f.d (DSs) dissertatsiya avtoreferati. –T.: BMA, 2017. 64 b.
16. Hamdamov O. N. Korxonalarda moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2018. – 54 b.
17. Tursunova N.R.Korporativ moliyani boshqarishda moliyaviy ta'minotni samarali tashkil etish yo'llari: (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2019. – 55 b.
18. Shomirov A. A. Aksiyadorlik jamiyatlar moliyaviy resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari: PhD) disser-tatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2019. – 63 b.



19. Хамидулин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления. Автореф. дис. на соискание уч. степ. д.э.н. –Т.: БМА, 2008
20. Xudoykulov X,X. Aksiyadorlik jamiyatlarida kapital qiymatini baholashning metodologik asoslarini takomillashtirish: I.f.d (DSs) dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent 2021. 65 b.
21. Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya. Darslik. –T."Moliya- iqtisod". –2021-4626.
22. Модильяни Ф, Миллер М. Сколько стоит фирма? Пер. с англ. –М.: Дело. 2001.
23. Ван Хорн, Джеймс К., Вахович (мл.), Джон М. Основы финансового менеджмента. – 12-е изд.: Пер. с англ. – М.: Издательский дом “Вильямс”, 2020. – 1485 с.
24. Гаврилова, А. Н. Финансовый менеджмент : учеб. пособие / А. Н. Гаврилова, Е. Ф. Сысоева, А. И. Барабанов. – М.: КноРус, 2013. – 432 с.
25. Белолипецкий, В. Г.Финансы фирмы: учеб. пособие / В. Г. Бело- липецкий. – М. : ИНФРА-М, 2009.– 244 с.
26. Ковалёв В.В.. Финансовый менеджмент: теория и практика / В.В.Ковалёв. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2019. – 1805 с.
27. <https://stat.uz>
28. <https://lex.uz>
29. <https://cer.uz>

Yashi

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

